

EXTIYOT BO`LING IS GAZI!

R. Babataev

Xo'jayli tumani FVB FVP katta inspektori kapitan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18418099>

O'zbyekiston Respublikasi Prezidyenti dyevoni topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tyegishli idoralar va xizmatlar bilan hamkorlikda Aholini tabiiy va is gazlardan zaharlanishning oldini olish hamda o'z vaqtida ogohlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi loyixasi ishlab chiqildi, shuningdek tabiiy va is gazidan zaharlanish hamda ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar, aholi o'rtasida targ'ibot –tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Is gazi (CO) rangsiz, hidsiz, korxona sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida vujudga kyeladi. Tutun tarkibida 3%, ishlangan gazda 13%, portlovchi gazlar tarkibida 50-60% gacha is gazi bo'ladi.

Is gazi bilan zaharlangan organizmda uglyerod va oqsil almashinuvi buziladi, natijada atsidoz alomatlari yuzaga keladi. Qon tarkibida kaliy va kaltsiy muvozanati buzilib, bosh miya bosimining oshishi kuzatiladi.

Organizmga kislarod yetishmasligi oqibatida markaziy nerv sistyemasi faoliyati buziladi.

Shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin. Tabiiy gazning xonada to'planishi oqibatida portlash va yong'in sodir bo'lishi, ularning ta'sirida inson turli darajada kuyishi, shikastlanishi va xalok bo'lishi mumkin.

Hurmatli hamyurtlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi sizlarni ogohlantiradi.

• Qishgi isitish pechlari sozligi va tutun mo'rilarini shahar va tuman yong'indan saqlash bo'limlari tomonidan tekshirtiring;

• gaz tarmoqlari va asboblarini tekshiruvdan o'tkazing;

• gaz isitish pechlarining soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilib turing, tunda ularni o'chirib qo'yishni unutmang;

• gaz jihozlari (gaz plita, isitish pechlari) ustida yuvilgan kiyimlarni quritmang;

• bolalarni uyda yolg'iz qoldirmang va ularni gaz asboblaridan foydalanishiga yo'l qo'ymang, olov bilan o'ynash xavfli ekanligini bolalaringizga uqtirib turishni unutmang;

• loyiha-smeta hujjatlariga asosan o'rnatilgan gaz asboblarini joyini o'zgartirmang;

• gaz so'rgich moslamalaridan aslo foydalanmang;

- gaz isitish pechlari va tarmoqlarini o`zboshimchalik bilan qoidaga xilof ravishda o`rnatmang;
- nosoz gaz jihozlarini o`zboshim-chalik bilan tuzatmang va ulardan foydalanmang;
- gaz sizib chiqqanida ochiq olov bilan tekshirmang;
- xonada gaz qidini sezganda elektr asboblari aslo yoqmang, yog`ilgan bo`lsa o`chirmang, zudlik bilan eshik va derazalarni ochib, xonani shamollating va darxol “104” raqamiga qo`ng`iroq qiling.